

**Tashaliyeva S.,
TDSHU o‘qituvchisi**

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI ANALITIK FE’L SHAKLLARINING QIYOSIY O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya. Turkologiyaning dolzarb muammolaridan biri fe’lning analitik shakllari hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu mavzuning o‘zbek va turk tilshunosligida o‘rganilish darajasi, ko‘makchi fe’llar yordamida shakllangan qo‘shma fel formalarining qo‘llanish o‘rni, matniy ma’nolari qiyosiy tahlil qilingan. Daliliy misollarga tayanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tayanch so‘z va iboralar: fe’l analitik shakllari, ko‘makchi fe’l, tasvir fe’llari

Аннотация. Одна из самых актуальных проблем тюркологии - аналитические глагольные формы. В статье дается сравнительный анализ уровня изученности данной темы в узбекском и турецком языкознании, использования составных глагольных форм, образованных с помощью вспомогательных глаголов, текстовых значений. На основании иллюстративных материалов были сделаны научные выводы.

Опорные слова и выражения: аналитические глагольные формы, вспомогательные глаголы

Annotation: One of the current problems of Turkology is the analytical forms of the verb. This article provides a comparative analysis of the level of study of this topic in Uzbek and Turkish linguistics, the use of compound verb forms formed with the help of compound verbs, their textual meanings. Scientific conclusions were given based on proof examples.

Keywords and expressions: compound verb, linked verb, description verb

Yangi O‘zbekistonda har sohada bo‘lganidek, ilm-fanda ham rivojlanish imkonlari tobora ortib bormoqda. Turkshunoslikning taraqqiyoti yo‘lida ham muhim qadamlar tashlanmoqda. Tildosh, qondosh Turkiya mamlakati bilan ilmiy- amaliy hamkorlikning ko‘lami ham kengayib, tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Turkshunoslik oldida turgan vazifalar zamonaviy metodlarni ishga solib, dolzarb ilmiy masalalarning yechimini topishni taqozo etayapti. O‘zbek tilini turkiy tillar, xususan, turk tili bilan muqoyasa qilib tadqiq etish ham ko‘pgina masalalarga oydinlik kiritadi.

O‘zbek va turk tillaridagi fe’lning analitik shakllarini qiyosiy o‘rganish shunday masalalardan hisoblanadi.

Haqiqattan, o‘zbek va turk tillarini o‘rgatish ba o‘qitishda ham, tarjima qilishda ham fe’l analitik shakllarining muvofiq ko‘rinishlarini topish va qo‘llanish

xususiyatlarini toʻgʻri belgilash nihoyatda murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Zero, odatdagi lugʻaviy birliklarni lugʻatlar orqali qiyoslab maqsadga muvofiq soʻz va iboralarni aniqlash uncha qiyin ish emas. Ammo feʼlning analitik shakllarini qiyosan oʻrganishning oʻziga xos murakkabligi bor. Bular quyidagilar:

1. Feʼlning analitik shakllari lugʻatlarda alohida soʻzlik sifatida qayd etilmaydi. Binobarin ularning har ikki tildagi muqobilini aniqlashning oʻzi butun bir izlanishni talab qiladi. Bunday izlanish esa mukammal lugʻatlar tuzish uchun zarur.

2. Oʻzbek tilshunosligida ham, turk tilshunosligida ham feʼl analitik shakllari maʼlum darajada oʻrganilgan. Ammo ikki til materiallarini qiyosiy oʻrganish amalga oshirilmagan.

3. Turk tiliga oid adabiyotlarda feʼl analitik shakllari koʻpincha qoʻshma feʼllar doirasida qaralgan. Demak feʼl analitik shakllari oʻzbek va turk tillarida bir-biridan farqli talqin etilmoqda.

Turkiy tillar grammatikasining qiyosiy jihatdan kam oʻrganilgan mavzularidan biri feʼllarning qoʻshma shakllaridir. Toʻgʻri, turkiy tilshunoslikda, rus tilshunosligida, gʻarb, sharq tilshunosligida va oʻzbek tilshunosligida bu yoʻnalishda qilingan ishlar anchagina. Ularda u yoki bu tilga mansub feʼl shaklining ifodasi, maʼnosi, vazifalari, grammatik vositalari adabiy til va sheva materiallari asosida oʻrganilgan. Aksariyat ishlar aniq bir til materialiga asoslangan. Feʼlshunoslik bobida fundamental asarlar yaratgan olimlar professor A.Gʻ.Gʻulomov, A.P.Hojiyev, turkiyshunoslardan A.N.Kononov, A.A.Yuldashev, H.A.Baskakov, M.S.Mixaylovlarni, shuningdek, D.G.Tumasheva, M.Sodiqova, X.Bayliyev, A.T.Tibikova, S.Akbarov¹ singari olimlarning alohida nashrlari va maqolalarini eslash shuni koʻrsatadiki, bu bahs boʻyicha yaratilgan ishlar boʻlsa ham, ammo ular orasidan qiyosiy tahlil yoʻnalishida olib borilgan ishlar deyarli yoʻq.

Mavjud qiyosiy yoʻnalishdagi ishlarning bazilari ham oʻzbek-turk tili qiyosi emas, balki boshqa turkiy tillar qiyosiga bagʻishlangan. Shunday ishlar qatoriga K.A.Tursunqulovning «Перифрастические формы глагола в узбекском и казахском языках», F.R.Bayramovning «Деривационный элемент аналитического глагола в тюркских языках», M.S.Mixaylovning «Перифрастические формы турецкого глагола» nomli tadqiqotlarini kiritish mumkin. Feʼlning analitik shakllari bir til misolida oʻrganilgan ishlar esa nisbatan koʻproq. Bular: «Сложные глаголы в туркменском языке», «Составные глаголы в алтайском языке», «Oʻzbek tilida qoʻshma feʼllar» kabi ishlardir.² Turkiyalik tadqiqotchi Savaş Şahin oʻz maqolasida turkman tilidagi analitik feʼl shakllarini

¹ Кононов А.Т. Грамматика турецкого языка, М.-Л., 1941; Гуломов. А. Феъл. Тошкент., ФАН, 1954; Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. М., 1965.

² Байлиев Х. Сложные глаголы в туркменском языке. Ашхабад, 1956;

o‘rganib, jami 17 ta ko‘makchi fe‘lning qo‘llanilish o‘rni va ma’nolarini sanab o‘tadi³.

Bulardan tashqari, tilshunoslikda u yoki bu fe‘lni semantik-grammatik jihatdan maxsus tadqiq qilish yo‘nalishida yaratilgan ishlar ham anchagina; ularning ayrimlari nomzodlik ishlari bo‘lsa, bazilari ilmiy to‘plam va alohida nashr qilingan maqolalardir. Shunday ishlar sirasiga O.A.Azizovning «Особенности глагола қилмоқ», K.A.Raxmonberdiyevning «Qara» fe‘li haqida», E.Dauenovning «Глагольные словосочетания и способы их образования в современном каракалпакском языке» kabi dissertatsiyalarini va maqolalarini kiritisa bo‘ladi. Shuningdek, maskur mavzuga daxldor ishlar qatoriga K.Sulaymonovning «Перифрастические формы узбекского глагола», A. Tursunqulovning «Вспомогательные глаголы в узбекских народных говорах» deb nomlangan nomzodlik ishlari ham mansub. O‘zbek va turk tillarida nashr qilingan o‘zbekcha va turkcha darsliklarda ham bu haqida qarashlar bor. Jumladan, professor Dr.Muharrem Erginning «Turk dil bilgisi», T.Bahguog‘lining «Turkçenin grammeri» asarlari shular jumlasidandir.⁴ Bu borada yaratilgan o‘ziga xos yo‘nalishdagi tadqiqotlardan biri B.G.Guzevning «Очерки по теории тюркского словоизменения. Глагол» nomida rus tilida nashr etilgan ishi bo‘lib, bu tadqiqot mavzuga doir fikrlarining farqli ekanligi bilan diqqatni tortadi⁵.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha ishlarning mazmun yo‘nalishiga, maqsadiga etibor qilinsa, aslida ularning barchasida ham turkiy tillar tabiatiga mos bo‘lgan fe‘llarning lug‘aviy-semantik tabiati, grammatik xususiyatlari tavsiflab berilgan. Albatta, ko‘proq u yoki bu fe‘lning qo‘shma shakl hosil qilishdagi xizmati, boshqacha aytganda, ko‘makchi, yordamchi vazifalarini yoritish diqqat markazida turadi. Lekin shunga qaramay har bir nashr muallifi ilgari surgan o‘ziga xos qarashlar bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, o‘zbek tilida yaratilgan deyarli hamma darsliklar va qo‘shma fe‘llarning tarifi uning morfologik tarkibi, turlari, bu turlardan har birining grammatik tavsifi, qo‘shma fe‘l, qo‘shma shaklning asosiy kompo‘nenti-bo‘lagi hisoblanmish ko‘makchi // yordamchi fe‘llarning semantik-grammatik tabiati yoritiladi. Ammo yoritilish darajasi, hajmi, misollarining berilishi biroz farqli desa bo‘ladi.

Bazi monografik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarida esa u yoki bu xususiyatiga ko‘proq etibor qaratilgan. Masalan, M.Sodiqovanning «Fe‘l stilitikasi» deb nomlangan ishida asosiy maqsad bu kategoriyaning uslubiy tomoniga qaratilganligi sababli ham sodda, ham qo‘shma fe‘llar shu nuqtai nazardan baholangan.

Turk tilida nashr qilingan grammatikalar mazmuni, xususan, hodisaning nomlanishida u qadar farq qilmasa ham, turkcha ifodasida, tasnifu yondashishlarda

³ S.Shahin. Türkiye Türkçesinde tasvir fiilleri ve tasvir fiillerinde kullanılan yardımcı fiiller. Cankırı Karatekin ÜniversitesiSBE Dergisi 3 (1): 177-190

⁴ M.Ergin. Türk dül bilgisi. İstanbul.1972: T.Banguoglu. Türkçenin grammeri. Ankara. 1990.

⁵ Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Глагол. Л., 1990.

o‘ziga xos jihatlari bilan o‘zbek tilidagi ishlardan farqlanadi ham.⁶ T.Banguo‘g‘lining yuqorida nomi tilga olingan grammatikasida fe’llarni biriktirish imkoniyatlari ular oldidan qo‘llanadigan so‘z va so‘z shakllarining ifodasi, sintaktik vazifasi, manosi, yakka, qo‘shma, juft qo‘llanishiga ko‘ra baholangan va shu jihatdan tasnif qilingan; mustaqil fe’l, yordamchi fe’l, yarim yordamchi fe’l kabi fellar farqlab izohlangan; ega vazifasidagi, to‘ldiruvchi vazifasidagi, hol vazifasidagi otlar bilan qo‘llanuvchi mustaqil fe’llar alohida-alohida tahlil qilingan⁷.

Muallimning yordamchi fe’llarning o‘zlashma so‘zlarga qo‘shilib, yangi fe’l yasashdan ko‘ra turkiy-turkcha qo‘shimcha qo‘shib, sodda yasama fe’l hosil qilishning afzalligi haqidagi qarashi ham e’tiborni tortadi. Bu ishda ot+fe’l tarkibli qo‘shma fe’llar tarkibidagi ikkinchi qismga nisbatan «yarim yordamchi fe’l» ifodasi qo‘llangan. Bunday ifodalanishni esa o‘zbek tilidagi grammatikalarda uchratmaymiz.

Turk tilshunoslarining ilmiy ishlarida ham har xilliklar kuzatiladi. Analitik fe’l shakllari uchun turli atamalarining qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Mazkur shakllardagi ikkinchi fe’l, ya’ni ko‘makchi fe’llarning qo‘shimcha ma’no yuklab, birinchi fe’l anglatgan harakatni tasvirlab kelgani uchun Z.Korkmaz, T.Banguo‘g‘lu kabi olimlar «tasvir fe’llari» atamasini qo‘llaydilar. Z.Korkmaz⁸ tasvir fe’llarini besh turga(yeterlik, tezlik, süreklilik, yaklaşma va uzaklaşma) bo‘lib o‘rganadi.Tahir Nejat Gencan⁹ esa «özel bileşik eylem» deb nomlaydi. V.Hatibo‘g‘lu va M.Hengirmen asarlarida «ulaçlı birleşik eylem» (ravishdoshli qo‘shma fe’l) atamasini uchratamiz. Turk tilshunoslarining deyarli barchasi analitik fe’l shakllarini qo‘shma fe’llarning bir turi sifatida baholaydilar.

Turkiyshunos olim B.G.Guzevning bu haqdagi qarashlari nomi yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqot ishining 5-va 6- boblarida o‘rin olgan.Bunday fe’llar mazkur ishda aspektuallik katego‘riyasi nuqtai nazardan baholashga harakat qilingan. Bu ishda fe’lning perifrastik va analitik shakllari alohida- alohida tahlil qilingan; o‘ndan ortiq konstruksiyaning ma’nolari izohlangan¹⁰.

O‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalishda qilingan ishlar salmoqlidir. O‘zbek tilshunosligida fe’l bahsiga oid qator monografik tadqiqotlar A.P.Hojiyev nomi bilan bog‘liq. «Fe’l», «O‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar», «To‘liqsiz fe’l» va o‘nlab maqolalar shular jumlasidandir. Olim jami 26 ta fe’lning ko‘makchi fe’l vazifasida kelishini aniqlagan¹¹. Shu holni ta’kidlash o‘rinliki, A.G‘ulomov ishlarida «qo‘shma fe’l» ifodasi keng ma’noda ishlatilgan bo‘lib, fe’lning analitik shakllari ham qo‘shma fe’l hisoblangan. A.Hojiyev esa qo‘shma fe’l bilan analitik shaklni farqlashga e’tibor bergan.

⁶ Osman Göker. Uygulamalı Türkçe bilgileri. İstanbul,1997

⁷ T.Banguoglu. Türkçenin grameri. Ankara. 1990. 310.s

⁸ Z.Korkmaz. Türkiye Türkçesi grameri. 2003. 811-833.

⁹ Tahir Nejat Gencan. Dilbilgisi. Ankara. 1979. 310-311.

¹⁰ Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Глагол. Л., 1990. 132-143.

¹¹ Hojiyev.A.P. O ‘zbek tilida ko ‘makchi fe’llar. T. 1966.

Turk tilining grammatik tuzulishini oʻrgangan rus sharqshunosning ishida qoʻshma feʼl tushunchasi kengroq maʼno yuklangan. N.A.Baskakovning «Каракалпакский язык», A.N.Kononovning «Грамматика турецкого языка», N.K.Dmitriyevning «Грамматика башкирского языка» kabi ishlarda shunday yondashish ustunroq.

Demak «qoʻshma feʼl», «analitik feʼl» deb nomlanuvchi tushunchalarga oid qarashlar rang-barang va ular koʻpchilik tilshunoslarning tahlil obyekti boʻla olgan. Biroq bu boradagi qarashlarda hali yakdillik yoʻq. Feʼlning analitik shakllarini hosil qilishda ishtirok etuvchi-zaruriy komponent koʻmakchi // yordamchi feʼllarning tabiati qiyosiy planda oʻrganilmagan. Bu ayniqsa, turk va oʻzbek tillarini solishtirib oʻrganishga oid ishlarning deyarli qilinmaganligida koʻrinadi. Shunday ekan, umuman, feʼllarni, xususan, feʼlning analitik shakllarini ikki qondosh, qardosh til misolida oʻrganish va bu boradagi terminologik har xilliklarni aniqlash hozirgi turkiyshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Soʻnggi davr oʻzbek tilshunosligida yetakchi va koʻmakchi feʼldan tashkil topgan birikuvlarni qoʻshma soʻz va soʻz birikmalaridan farqlab oʻrganishga harakat qilinmoqda. Koʻmakchi vazifasidagi feʼllar feʼlning maxsus shakli-analitik formasini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalar sifatida baholanmoqda. Koʻmakchi vazifasidagi oʻttizga yaqin feʼlning maxsus monografik tadqiqot obʼekti boʻlganligi ham maʼlum. Ushbu mavzu esa turk tilshunosligida “yardımcı fiil” atamasi bilan tavsiflanadi. Xususan, Tahsin Banguoʻgʻlu ot+feʼl tarkibli yordamchi feʼllar uchun “yarim yordamchi feʼl” ifodasini qoʻllagan. Analitik feʼl shakllari turk tilidagi adabiyotlarda “birleşik fiil”, “tasvir fiilleri”, “karmaşık fiil” kabi ifodalar bilan nomlanadi¹² va turk tilidagi “tasvir feʼllari” maʼnosiga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi: yeterlik, tezlik, sürerlik, yaklaşma.

Maʼlumki, oʻzbek va turk tillarini oʻrganishda va tarjima jarayonlarida feʼl analitik shakllarining qoʻllanish xususiyatlarini toʻgʻri belgilash murakkab hollardan hisoblanadi. Analitik feʼl shakllarining aniqlanishi, matniy maʼnolari koʻmakchi vazifasidagi har bir feʼlning nutqiy maʼnolarini aniq ajratish bilan uzviy bogʻliq. Muqoyasa qilinayotgan har ikki tilda faol qoʻllanuvchi baʼzi feʼllarning analitik shakllarini, ularning maʼno koʻlamini, qoʻllanilish oʻrinlarini, grammatik ifodalarini oʻrganish ham ushbu maqsadga yoʻnaltirilgan.

Avvalo, turk tilida yetakchi feʼl bilan birga kelib, qoʻshimcha maʼno beruvchi feʼllar *bilmek*, *vermek*, *durmak*, *koymak*, *gelmek*, *görmek*, *kalmak*, *yazmak* kabi feʼllar asosiy feʼlga qoʻshib yoziladi. Bu koʻmakchi feʼllarning oldidan –a, -e; -ı, -i, -u, -ü; -ıp, -ip, -up, -üp qoʻshimchasini olgan ravishdosh shakli ishlatiladi. Ravishdosh anglatgan maʼno asosiy maʼno hisoblanadi.

¹² M.Ergin. Türk dül bilgisi. İstanbul.1972 370 : T.Banguoglu. Türkçenin grameri. Ankara. 1990.482-488

“Bilmek” fe’lining vazifasi imkoniyat, “vermek” niki tezlik, birdan/ to’satdan, “gelmek, koymak, durmak” fe’llariniki sinash, davomlilik, “yazmak” fe’lining vazifasi esa yaqinlashmoq ma’nolarini anglatishdir.

“Olmoq” fe’lining genetik ma’nosi “qabul qilmoq”dir. A.Hojievning ko’rsatishicha, “olmoq” fe’li bir necha ko’makchi ma’noga ega bo’lib, bu ma’nolar grammatik jihatdan 3 xil ko’rinishdagi analitik shakllar orqali yuzaga chiqadi¹³. *Karima uni darrov ko’tarib oldi. Men ham savodimni chiqarib oldim. U ham qo’liga qizil latta bog’lab olgan edi.* O’zbek tilidagi misollardan ko’rinib turganidek, bu ko’makchi fe’l harakatning tezlikda sodir bo’lganini, harakat natijasining sub’yekt manfaati tomon yo’nalishini, ba’zan esa holatni ifodalab keladi. Turk tilida esa “almak” fe’li otlar bilan birga kelib, fe’l hosil qiladi. Ammo fe’l+fe’l shaklidagi analitik fe’l tarkibida ishtirok etmaydi: *haber almak, nefes almak*.

O’zbek tilidagi “yoza olmoq” shaklini ifodalash uchun turk tilidagi “bilmek” ko’makchi fe’li qo’llanadi. (Yazabilmek.) “Bilmek” ko’makchi fe’li turk tilida bir necha ma’noni anglatadi: 1) Ma’lum bir harakatni qila olish: *Ben bu işi yapabilirim*; 2) Ma’lum bir harakatning bajarilish yoki amalga oshish ehtimoli: *Yog’ işi mümkün-yağabilir*; 3) Ruxsat so’rash uchun qo’llaniladi: *O’tirsam bo’ladimi? -Oturabilir miyim?*

Turk tilidagi bu fe’lning yana bir o’ziga xos jihati bo’lishsiz shaklda qo’llanganda eski turkchadagi “umak” (etarli bo’lmoq) yordamchi fe’li bilan kelishidir. O’ylay olmaydi.-düşünemez. Turkchadagi “umak” -yeterli olmak fe’li “bilmek” ko’makchi fe’li anglatgan ma’noda ishlatilgan bo’lib, keyinchalik bu fe’l o’z o’rnini bilmek fe’liga bo’shatib bergan. Lekin qila olmaslik ma’nosidagi bo’lishsizlik shaklida umamak fe’li qo’llanib kelinmoqda. “Umamak” fe’li qo’shimcha holiga kelib qolgan.

Turk tilidagi “vermek” fe’li ham analitik fe’l shakllarini hosil qiluvchi vositalardan biridir. Bu ko’makchi fe’lning qo’llanilishi yetakchi fe’l bildirgan harakatning tezlikda, birdaniga bajarilganligini anglatadi. Matndan kelib chiqib, bunday fe’l shakllarini o’zbek tiliga tarjima qilayotganda turli ko’makchi fe’llarni qo’llash kerak bo’ladi. *Şıp diye yakalayıverdi.* (Tezda tutib oldi.)

Kayboluverdi. (Yo’ qolib qoldi.)

Geliver. (Kelaqol.)

İki dakikada yazıverdim. (Yozib tashladim.)

Misollarda ko’rinib turganidek “vermek” fe’li o’zbek tilidagi “olmoq”, “qolmoq”, “tashlamoq” ko’makchi fe’llari ifodalagan ma’nolarni anglatib, harakatning to’satdan, birdaniga, tezda bajarilganligini bildiriyapti.

Turk tili grammatikasida “yazmak” ko’makchi fe’li “taxmin fe’li” deb nomlanadi. Bu ko’makchi fe’l yetakchi fe’l anglatgan harakatning bajarilishiga bir bahya qolganligini, amalga oshishiga bir oz vaqt qolganligini bildiradi. Boshqa

¹³ Hojiyev.A.P. O’zbek tilida ko’makchi fe’llar. T. 1966.

ko‘makchi fe‘llarga nisbatan kam qo‘llanuvchi “yazmak” fe‘li o‘zbek tilidagi “yozmoq” fe‘liga mos keladi. Ayaği kayıp *düşeyazmış*.

“Gelmek, koymak, kalmak, görmek, durmak” fe‘llari turk tilida davomlilik fe‘llari deb nomlanadi. Ish-harakatning ma‘lum bir vaqt mobaynida davom etganligini anglatadi. *Konuşan konuşadursun. Sen okuyadur.* “Durmak” ko‘makchi fe‘li o‘zbek tilidagi “turmoq” fe‘li anglatgan ma‘noni bildirib keladi:

Serpil Hanım saatlerce geminin ardından *bakıp durdu.*

Bütün seyirciler sihirbazın hünerine *şaşıp kaldılar.*

Eskiden dost olan iki ülke yıllarca *savaşıp durdu.*

Ayşe halsizlikten saatlerce koltukta *oturup kaldı.*

Bu olaylar karşısında *donakaldık.*

Onun arkasından *bakakaldı.*

Bu gaplardagi “kalmak” esa yetakchi fe‘l anglatgan holatning davom etishi ma‘nosini hamda tezda bajarilganligini bildiradi. “*Sen dediklerimi yapmayagör.*” jumlasidagi “gör” ko‘makchi fe‘li esa yetakchi fe‘l ifodalagan xatti-harakatning bo‘lishsiz shakli bilan birga qo‘llaniladi.

Anglashilishicha, har ikki tildagi grammatikalarni, nutq parchalarini qiyosan o‘rganish bu tillardagi ko‘makchi fe‘llarning imkoniyatlari har xil ekanligini ko‘rsatadi. Har doim ham ko‘makchi fe‘llar ma‘no jihatidan aynan bir- biriga teng kelavermaydi. Quyida keltirilgan misollarni chog‘ishtiring.

Nihoyat kun horg‘inligidan va har dam xurmacha singari yumalayverishdan charchab, enagamning tizzasida yana barvaqt uxlab qolibman. *Nihayet, günün yorgunluğundan ve zilli tellerle testi biçiminde dümbeleklerin verdiği sersemlikten yine erkenden uyuyakaldım.* “Choli qushi” asaridan¹⁴ olingan matnning tarjimasidan ko‘rinib turganidek, “kalmak”-“qolmoq” ko‘makchi fe‘li har ikki tilda ham bir xil ma‘noda kelishi mumkin. Faqatgina ravishdosh shakli farq qiladi. Yana quyidagi matniy misollarni qiyoslang:

Turk tilida	O‘zbek tilida
Duvardeki boyalı Meryem tablosunun altına asılmış guguklu saat durmadan yürüyor. Vazifem sınıfta okunduğu zaman bütün arkadaşlarım bana dönerek kahkaha ile gülmüşler Seni hiç olmazsa bir mevsim için, iki ay için annene göndereyim.	Devorda Bibi Maryamning bo‘yoqli surati tagiga osib qo‘yilgan kakkuli soat tinmay yurib turibdi. Inshom sinfda o‘qilganda dugonalarim men tomonga o‘girilishib, qahqaha urib kulib yuborishdi. Seni hech bo‘lmasa bir mavsumgina, mayli, ikki oygina onangning yoniga yuborib turay.

¹⁴ R. N. Guntekin. Choliqushi. Mirzakalon Ismoilij tarjimasi, T., 1965

Xuddi shunday holat aksincha bo‘lishi ham kuzatilishi mumkin.

Turk tilidagi “bilmek” ko‘makchi fe‘lli shakl o‘zbek tilidagi ko‘makchi fe‘lli shaklga aynan teng kelmaydi. Misol: *İstanbul’da ancak bir hafta kalabilmişti.* Shuning uchun Istambulda atigi bir hafta qolishi mumkin edi. Yana qiyoslang:

Bilmek (yazabilmek) = olmoq (yoza olmoq);

Durmak (yazadurmak) = turmoq (yozib turmoq);

Vermek (yazıvermek) = yubormoq (yozib yubor), olmoq (tutib olmoq), qolmoq (kelaqol);

Kalmak (uyuyakalmak) = qolmoq (uxlab qolmoq).

Har ikki tildagi analitik fe‘l shakllarini qiyoslab, ularning matniy ma’nolarini kuzatib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Analitik fe‘l shakllarining ko‘makchi fe‘llar vositasida yuzaga kelishi har ikki til uchun xosdir.

2. Ko‘makchi fe‘l vazifasini bajaruvchi fe‘llarning ko‘lami, turli darajadagi imkoniyatlari har xil, biriktiruvchi vositalarda ham o‘xshash va farqli tomonlar bor. Shunga ko‘ra, u yoki bu ma’noning ifodalanish usuli tillararo farqlidir.

3. Ko‘makchi fe‘llar asosida yuzaga kelgan analitik shaklning sintetik shaklga aylanishi har ikki tilda uchrab turadi. Lekin bu hol hamma analitik fe‘llarga birday xos emas.

4. Ko‘makchi fe‘llar miqdori ham har ikki tilda son jihatdan teng emas. O‘zbek tilida 26-28ta, turk tilida esa 13ta.

5. “Ot+fe‘l” tarkibli, “fe‘l+fe‘l” tarkibli fe‘llar har ikki tilda uchraydi. Biz birinchi holatga nisbatan yordamchi fe‘l, ikkinchi holatdagi 2-komponentni ko‘makchi fe‘l tarzida farqlashni ma’qul ko‘ramiz.

6. Ko‘makchi fe‘l bilan asosiy fe‘lni birlashtirib turuvchi grammatik vositalar ham vazifasiga ko‘ra o‘xshash bo‘lsa-da, fonetik va morfologik ifodasiga ko‘ra farqlidir.

O‘zbek tilida: -b, -ib, -e, -y.

Turk tilida: -a, -e; -ı, -i, -u, -ü; -ıp, -ip, -up, -üp

7. Shu doirada ishlatilayotgan atamalarga aniqlik kiritish va bu borada bir xillikka erishish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Байлиев.Х. Сложные глаголы в туркменском языке.Ашхабад,1956;
2. Banguoglu. T.Türkçenin grameri. Ankara. 1990. 310.s
3. Гузев.В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Глагол. Л., 1990. 132-143.
4. Гуломов. А. Фёъл. Тошкент., ФАН, 1954; Юлдашев.А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. М., 1965.

5. Ergin. M. Türk dül bilgisi. İstanbul.1972 370 : T.Banguoglu. Türkçenin grameri. Ankara. 1990.482-488
6. Кононов.А.Т. Грамматика турецкого языка, М.-Л., 1941
7. Korkmaz. Z.Turkiye Turkcesi grameri. 2003. 811-833.
8. Osman Göker. Uygulamalı Türkçe bilgileri. İstanbul,1997
9. Tahir Nejat Gencan. Dilbilgisi. Ankara. 1979. 310-311.
10. Shatin. S.Türkiye Türkçesinde tasvir fiilleri ve tasvir fiillerinde kullanılan yardımcı fiiller. Cankırı Karatekin ÜniversitesiSBE Dergisi 3 (1): 177-190
11. Hojiyev.A.P. O ‘zbek tilida ko ‘makchi fe’llar. T. 1966